

O'ZBEKISTONNING TURIZM SALOHİYATI: IMKONIYATLAR VA RIVOJLANISH YO'LLARI

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat Pedagogika universiteti

Harbiy ta'lim Fakulteti

Chaqiriqqacha harbiy ta'lim yo'nalishi

101- guruh talabasi

Nurullayev Sharifxo'ja Mansurxo'ja o'g'li.

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekistonning turizm sohasi tahlil qilinadi. Elologik turizm, madaniy sayohat, ziyorat turizmi rivojlanishi, ba'zi muammolar va yechimlar keltiriladi. Taqdiqot natijalari turizmni o'sib borayotganini ko'rsatadi, transport va reklamani rivojantirish joizligini ta'kidlaydi.

Kalit so'zlar: tarixiy an'analar, madaniy meros, muqaddas qadamjo, madaniy turizm, sayyohlar oqimi, ekologik sayohat, ichki turizm.

Kirish

O'zbekiston Markaziy Osiyoning yuragida joylashgan mamlakatlardan biri hisoblanib, o'zining tarixiy an'analari, boy va qadimiy madaniyati va chuqur tarixi orqali o'zga davlatlardan kelgan sayyohlarni e'tiborini tortadi va o'ziga jalb qiladi. Yaqin besh yillikda turizm sohasini takomillashtirish uchun kata e'tibor qratilmoqda. Ya'ni ushbu borada ko'plab islohotlar ham amalga oshirilyapti, xususan, sohalardagi infratuzilmalarni yaxshi yo'lga qo'yish, vizalardagi tartiblarni samarali tarzda yaxshilash, madaniy meroslarni saqlash bo'yicha qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Ushbu tadqiqotda O'zbekistondagi rivojlanib borayotgan turizm salohiyati, uning hozirgi kundagi holati va yanada takomillashtirish yo'llari tahlil qilinadi.

Usul

Bu maqolada O'zbekistondagi turizm salohiyati bo'yicha xalqaro tashkilotlarning xabarlari, hukumat ma'lumotlari tahlil qilindi. Ba'zi turdagi statistikaga oid ma'lumotlar, sayyohlik obyektlarining jarayonlari asosida turizm sohasidagi rivojlanishlarning muhim bo'lgan xususiyatlari o'rganildi. Shunga ko'ra, ba'zi xulosalar qayd etildi, masalan, O'zbekiston respublikasidagi oxirgi siyosatlar, vizadagi o'zgarishlar va sayyohlar oqimi bilan bog'liq tushunchalar va rasmiy holdagi ma'lumotlarga tayangan holda xulosa chiqarildi.

Natijalar

Ushbu tadqiqot natijalari asosida O'zbekistonda turizm yetarli darajada rivojlanib borayotganligi o'z isbotiga ega ekanligi ko'rsatiladi:

- **Ekoturizm-** bunda, tog' hududlari va milliy bog'larga bo'lgan qiziqishlar ortib boradi.

- **Ziyoratga oid sayohat-** bu muqaddas qadamjolar, masalan, Shoxi Zinda kabi manzillarga bo'lgan qiziqishlar.

- **Tarixiy ahamiyatli va madaniy turizm-** bu ko'hna qadamjolarga qizishlar va tashriflar. Masalan, Xorazm(Xiva), Samarqand, Buxoro kabi manzillar kishilarni o'ziga jalb qiladigan maskanlar hisoblanadi.

Muhokama

O'rganilgan natijalar shuni ta'kidlaydiki, O'zbekistondagi sayohat sohasi salohiyatini bugungi kunga qaraganda yanada rivojlantirish uchun quyidagi ba'zi omillar ham muhim hisoblanadi:

- **Reklamalar qilish-** O'zbekistonning e'tiborga sazovor joylarini xalqaro maydonlarda keng ko'lamda tadqiq qilish.

- **Transport sohasini yanada rivojlanishiga hissa qo'shish-** joriy chiptalarni narxini arzonlashtirish yoki arzon narxdagi chiptalarni joriy etish, aviaqatnovlarni yanada rivojlantirish.

- Mehmonxonalar, restoranlar standartlardan yiroq bo'lmasligi kerak

•**Mamlakatning ichki turizmini yoki ekologik sayohatlarni yanada isloh qilish-**ya'ni, faqat qadimiy,tarixiy ahamiyatli manzillar yoki shu kabi qadamjolarinigina emas, balki tabiiy joylar ham keng ko'lamda targ'ib qilinishi joiz.

Xulosa

Natijalar orqali shu ma'lum bo'ladiki, O'zbekistondagi turizm salohiyati sezilarli darajada o'sib boryapti. Mamlakatning nufuzli maskanlari, geografik joylashuvi, go'zal tabiati va sof iqlimi, madaniy-tarixiy merosi, qadimiy an'analari va ko'hna obidalarini chet ellik sayyohlar diqqat-e'tiborini jalb qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, O'zbekiston sayohatini bundanda takomillashtirishga bog'liq muammolar ham bor. Birinchidan, xizmat ko'rsatish sifati joriy standartlarga mos ravishda bo'lishi kerak.Restoran yoki mehmonxonalardagi sharoit va qulayliklarni oshirish kerak. Ikkinchidan, transportning keng qamrovli tizimini yo'lga qo'yish va aeroportlarni ko'paytirish sayyohlar oqimini oshirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Turizm va madaniy meros vazirligi rasmiy sayti — www.madaniymeros.uz
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlari va farmonlari to'plami. (2017–2024 yillar)
3. “O'zbekiston Respublikasida turizmni rivojlantirish strategiyasi” – Toshkent, 2020.
4. Mamatqulov, I. (2021). Turizm geografiyasi asoslari. Toshkent: Iqtisod-Moliya nashriyoti.
5. Karimov, A. (2019). Zamonaviy turizm va uning turlari. Samarqand: Registon nashriyoti.
6. World Tourism Organization (UNWTO) Reports – www.unwto.org
7. Qodirova, D. (2022). “O'zbekistonning turizm salohiyati va uni rivojlantirish istiqbollari”, Iqtisodiyot va innovatsiyalar jurnali, №3.